



O'zbekiston Respublikasi Ta'limni rivojlantirish
respublika ilmiy-metodik markazi

Xalqaro tadqiqotlarga tayyorgarlik ko'rishda tayanch maktablarining o'rni va ahamiyati

N.Kenjaboyeva, Surxondaryo viloyati pedagogik mahorat
markazi dotsenti, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD)

Ta'lim sifatini baholash xalqaro tadqiqotlarida ishtirok etish O'zbekistonga nima beradi?

- ❖ Tadqiqotlarda olingan natijalar mamlakatdagi ta'lim sifati va uning xalqaro standartlarni hisobga olgan holda egallagan o'рни to'g'risida xulosalar chiqarish imkonini beradi.
- ❖ Milliy ta'lim tizimini isloh qilish, ta'lim mazmunini, pedagog kadrlar tayyorlash va ularni dasturlarini takomillashtirish hamda mutaxassislar tomonidan darsliklarning yangi avlodini yaratishda qo'llaniladi.



❖ Xalqaro tadqiqotlar ta'lim sohasidagi milliy tadqiqotlarni sifatli o'tkazishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

❖ Xalqaro standartlar darajasida yuqori iqtisodiy samaraga asoslangan milliy baholash tizimini yaratish imkonini beradi.

❖ Xalqaro standartlar darajasida yuqori iqtisodiy samaraga asoslangan milliy baholash tizimini yaratish imkonini beradi.

- 
- ❖ O'zbekistonda turli tashkilotlarning yetakchi mutaxassislarini jalb qilgan holda xalqaro tadqiqotlarda ishtirok etish orqali mahalliy mutaxassislarimizda monitoring tadqiqotlarini o'tkazish madaniyati rivojlanadi, ta'lim sifatini baholashning xalqaro standartlarga moslashuviga olib keladi.
 - ❖ Milliy ta'lim sifatini baholashdagi nazorat materiallarini xalqaro tadqiqotlarda qo'llaniladigan nazorat materiallari sifati darajasida ishlab chiqish imkonini beradi.

Tadqiqotlarga tayyorgarlik ko'rish jarayonlarida fan o'qituvchisining vazifalari

- ✓ O'quvchilar va ota-onalarga to'g'ri, to'liq va uzluksiz ma'lumot berib boradi.
- ✓ Dars mashg'ulotlari mazmunini o'quvchilarning o'qish savodxonligini rivojlantirishga yo'naltiradi.
- ✓ Hayotiyligi va amaliy ahamiyati yuqori, zamonaviy to'garak mashg'ulotlarini yo'lga qo'yadi.
- ✓ Dars jarayonida fanlararo integratsiyani ta'minlaydi.




PIRLS (*Progress in International Reading Literacy Study — xalqaro o‘qish savodxonligini o‘rganishdagi yuksalish*) — bu turli mamlakatlarda boshlang‘ich sinfda tahsil oluvchi o‘quvchi yoshlarning matnni o‘qish va tushunish darajalari sifatini baholab beruvchi xalqaro baholash tizimidir

*O'qish
savodxonligining
maqsadi*




Badiiy tajriba orttirish;
Axborotni olish va undan
foydalanish

PIRLS tadqiqotida ishlatiladigan matnlar uchun quyidagi mezonlar belgilangan



MATNLAR

- ❖ murakkabligiga qarab, oʻrtacha **500 dan 800 tagacha** soʻzdan iborat;
- ❖ oʻquvchilarning oʻqish savodxonligi darajasi past boʻlgan mamlakatlar uchun **400–500 ta** soʻzdan iborat;
- ❖ PIRLSda esa, taxminan, **1000 ta** soʻzdan iborat;
- ❖ aniqlik va izchillik muhim mezon hisoblanadi.



XALQARO TADQIQOTLARD
BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QUVCHILARINING
O'QISH SAVODXONLIGINI BAHOLASH

Matnga qo'yiladigan mezonlar

- ❖ **Badiiy matnlar** asosiy mavzuni o'z ichiga oladi, o'quvchi tomonidan umumlashtiriladi va xulosa qilinadi.
- ❖ **Axborot matnlarida** o'quv materiallardan olinmagan mavzulardan topshiriqlar tayyorlanadi.
- ❖ **40 dan** ortiq tillarga tarjima qilinadi, shuning uchun tarjima qulay bo'lishi muhimdir.
- ❖ **9–10 yoshdagi** o'quvchilarning yosh xususiyatlariga mos kelishi, ayrim madaniyatlarga juda xos bo'lgan mavzulardan chetlanishi lozim.
- ❖ **matn syujetining** mantiqiy ketma-ketligiga rioya qilish muhimdir;
Oddiy va murakkab matnlar tengligiga e'tibor qaratish lozim.



Agar o'quvchilar suhbat yuritilayotgan mavzuni **o'qib o'rgangan** bo'lsalar, ikki haftadan so'ng shu mavzu so'ralsa, ular **10 %** ma'lumotni gapirib beradilar.

- **eshitib** olgan ma'lumotlarning **20 %**ini;
- **ko'rib** olgan ma'lumotlarning **30 %** ini;
- **ham ko'rib, ham eshitib** olgan ma'lumotlarning **50 %** ini,
- **o'zaro muhokama qilinganda** olgan ma'lumotlarning **70 %** ini;
- **shaxsan his qilganda** olgan ma'lumotlarning **80 %** ini,
- **o'qitish orqali, takrorlash orqali** olgan ma'lumotlarning **95 %** ini

tushunadilar va eslab qoladilar.

“ZEHNLI MATN” DIDAKTIK MASHQ

Mazkur didaktik mashq davomida oʻtilgan mavzu matniga notoʻgʻri soʻzlar yoziladi va oʻquvchilarga tarqatma sifatida beriladi, bolalar toʻgʻri va notoʻgʻri mulohazani aniqlaydilar.

Maqsad: bolalarda matnni oʻqib tushunish koʻnikmasini shakllantirish.

SALOMLASHISH ODOBI

Husayn Voiz Koshifiy

Salom – salomatlik ma'nosini ifodalaydi. Agar sendan necha mavridda salomlashish kerak, deb so'rasalar, sakkiz holatda, deb javob bergin. Avvalo: dushmanlarni, aka-ukalarni ko'rganda salomlashish kerak. Ikkinchi: jamoat joylariga borganingda salom berishing lozim. Uchinchi: biror xonadonga borsang, u yerga salom berib kirmagin. To'rtinchi: bir yerda tarqoq bo'lib o'tirgan kishilar davrasiga kirsang, salomlashgin. Beshinchi: kishilar huzuridan turayotganingda ham salomlashishni unutma, uni ko'rishish (xayr-u xo'sh) salomi deyiladi.

SALOMLASHISH ODOBI

Husayn Voiz Koshifiy

Salom – salomatlik ma'nosini ifodalaydi. Agar sendan necha mavrida salomlashish kerak, deb so'rasalar, **yetti** holatda, deb javob bergin.

Avvalo: **yor-u do'stlarni**, aka-ukalarni ko'rganda salomlashish kerak.

Ikkinchi: jamoat joylariga borganingda salom berishing lozim.

Uchinchi: biror xonadonga borsang, u yerga salom berib **kirgin**.

To'rtinchi: bir yerda **jam** bo'lib o'tirgan kishilar davrasiga kirsang, salomlashgin.

Beshinchi: kishilar huzuridan turayotganingda ham salomlashishni unutma, uni **vidolashish** (xayr-u xo'sh) salomi deyiladi.

	NOTO‘G‘RI	TO‘G‘RI
	sakkiz	yetti
	dushmanlarni	yor-u do‘stlarni
	kirmagin	kirgin
	tarqoq	jam
	ko‘rishish	vidolashish

SALOMLASHISH ODOBI

(matnning haqiqiy holati)

Salom – salomatlik ma'nosini ifodalaydi. Agar sendan necha mavridda salomlashish kerak, deb so'rasalar, yetti holatda, deb javob bergin.

Avvalo: yor-u do'stlarni, aka-ukalarni ko'rganda salomlashish kerak.

Ikkinchi: jamoat joylariga borganingda salom berishing lozim.

Uchinchi: biror xonadonga borsang, u yerga salom berib kirgin.

To'rtinchi: bir yerda jam bo'lib o'tirgan kishilar davrasiga kirsang, salomlashgin.

Beshinchi: kishilar huzuridan turayotganingda ham salomlashishni unutma, uni vidolashish (xayr-u xo'sh) salomi deyiladi.

“Shaxsiy xulosa” metodi

Mazkur metod yordamida oʻtilgan mavzu yuzasidan olingan bilim, koʻnikma va malakalar aniqlanadi.

Bunda olingan bilimlar asosida ogʻzaki yoki yozma tarzda xulosa berish mumkin.

“Shaxsiy xulosa” metodi



“PIRLS” XALQARO BAHOLASH DASTURI

haqidagi ma’lumotlarni yodga oling.



***“Menim-cha, o‘quvchilarni
PIRLSga tayyorlash uchun...”***

shaxsiy xulosalaringiz asosida davom ettiring.

E'TIBORINGIZ UCHUN RAXMAT!